

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 21 865,4 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar- 21 337,9 mlrd. so‘mni (103,4 %), o‘rmon xo‘jaligi- 437,9 mlrd. so‘mni (103,1 %), baliq xo‘jaligi – 89,6 mlrd. so‘mni (110,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.



21 865,4

**Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

01



21 337,9

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu
sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02



437,9

O‘rmon xo‘jaligi


03




89,6

Baliq xo‘jaligi

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot




Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da



2021- yilning yanvar- sentabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,6 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,0 foizi - o'rmon xo'jaligi, 0,4 foizi - baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot
(xizmat)larining hajmi**



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jalaquduq (2 295,9 mlrd. so'm) va Asaka (2 198,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (125,4 mlrd. so'm), Andijon shahri (631,8 mlrd. so'm) va Ulug'nor tumanini (853,5 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,4 %) yuqori o'sish sur'atlari Bo'ston (109,2 %) va Ulug'nor (107,3 %) tumanlarida kuzatildi. Andijon shahrida (100,9 %), Andijon (100,9 %) tumanida Xonobod shahrida (99,9 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021- yilning yanvar– sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 21 111,0 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 13 216,3 mlrd.so'mni (102,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 7 894,7 mlrd. so'mni (104,0 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 68,4 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 28,6 foizi – fermer xo‘jaliklariga, 3,0 foizi – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha
xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**



■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2021- yilning yanvar– sentabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida (43,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xonobod shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bo'ston tumanida (8,5 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Oltinko'l tumanida (20,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Ulug'nor tumanida (51,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Andijon shahrida (0,6 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 13 216,3 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 62,6 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari



● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Hududlar bo'yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, ming t.



Sabzavotlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021- yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 225,0 ming tonna sabzavotlar (2020- yilning yanvar– sentabriga nisbatan 5,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 75,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t.



Kartoshka




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi





2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 231,8 ming tonna kartoshka (2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan 1,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 70,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, ming t.



Poliz



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 91,0 ming tonna poliz (2020- yilning yanvar - sentabrga nisbatan 7,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 64,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, ming t.



Mevalar va rezavorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi





2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 423,4 ming tonna mevalar va rezavorlar (2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan 1,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 72,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha mevalar va rezavorlar yetishtirish hajmi, ming t.



Uzum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 59,6 ming tonna uzum (2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan 4,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 49,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

Hududlar bo'yicha **uzum** yetishtirish hajmi, ming tonna




Chorvachilik




2021- yilning yanvar –sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7 894,7 mlrd. soʻmni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 37,4 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 123,3 ming tonna goʻsht (2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan 5,9 % ga koʻp), 642,6 ming tonna sut (3,3 % ga koʻp), 433,7 mln.dona tuxum (5,4 % ga koʻp) va 6 940,3 tonna baliqchilik (7,8 % ga koʻp) ovlandi.


Go'sht (tirik vaznda)



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 123,3 ming tonna go'sht (2020- yilning yanvar –sentabrga nisbatan 5,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 87,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna



Sut



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 642,6 ming tonna sut (2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan 3,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna



Tuxum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi





2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 433,7 mln.dona tuxum (2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan 5,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 72,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


Hududlar bo'yicha olingan **tuxum** hajmi, mln. dona



Baliq



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 6 940,3 tonna (2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan 8,2 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 71,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Hududlar bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021- yining 1- oktabr holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 foizi fermer xoʻjaliklari hissasiga, 94,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 0,7 foizi qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini qayd etib oʻtish lozim, shunga mos ravishda qoʻy va echkilarning umumiy sonidan 4,8 foizi fermer xoʻjaliklariga, 94,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 0,6 foizi qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi, otlar umumiy sonidan 16,7 foizi fermer xoʻjaliklariga, 81,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 1,9 foizi qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 13,4 foizi fermer xoʻjaliklariga, 71,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 15,5 foizi qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi.


2021- yilning 1- oktabr holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 087,8 ming taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 34,6 ming taga (3,3 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 373,4 ming taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 11,2 ming taga (3,1 %) ko'paydi.

Sigirlar



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


Hududlar bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 477,5 ming taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 34,0 ming taga (2,4 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 94,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 6 713 taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 29 taga (0,4 %) ko'paydi.

Otlar



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 81,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 116,0 ming taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 356,0 ming taga (4,6 %) ko'paydi.

Parrandalar



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 71,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh

